

# Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish

*5111700 - Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish* - umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari uchun o'qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig'indisidan iborat bo'lgan ta'lim yo'nalishidir.

## **5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi**

### **4.1 Bakalavrning kasbiy faoliyat sohasi**

*5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish* – umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari uchun o'qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig'indisidan iborat bo'lgan ta'lim yo'nalishidir.

### **4.2 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati obyektlari**

*5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish* ta'lim yo'nalishidagi bakalavrlarning **kasbiy faoliyati obyektlari** – umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, o'quvchilar, o'quv-tarbiya jarayoni, o'qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari.

### **4.3 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati turlari**

*5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr o'z psixologik-pedagogik, kasbiy tayyorgarligiga muvofiq quyidagi kasbga oid faoliyat turlari:

- *o'qituvchilik;*
- *tarbiyachilik;*
- *o'quv-metodik;*
- *ilmiy-tadqiqot.*

Bakalavr tayyorlanadigan kasbiy faoliyatning muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim tizimi tomonidan aniqlanadi.

### **4.4 Bakalavrlar kasbiy faoliyatining vazifalari**

*5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr ta'lim dasturini o'zlashtirish natijasida kasbiy tayyorgarlikning asosiy turlari va maxsus tayyorgarligiga mos quyidagi kasbiy vazifalarni yechishi kerak:

- **o'qituvchilik**: umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ishlash;

- **tarbiyachilik**: umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlaridan tashqari muassasalarda tarbiyachi bo'lib ishlash;

- **o'quv-metodik**: mos ta'lim yo'nalishlar bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib ishlash;

**ilmiy-tadqiqot** muassasalarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash va boshqalar.